




ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



Mening dunyom befarqlik  
ummonida suzib yuruvchi  
kichik og'riq oroli!

ZIGMUND FREYD  
(1856-1939)

# 2022

MAY  
№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
2-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-2**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-2**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР**

<b>1. Baymatov Alisher Kaxramonovich.....</b>	<b>7</b>
TINCHLIK VA BARQARORLIKNI MA'NAVIY YUKSALISH OMILI .....	7



## ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

### TINCHLIK VA BARQARORLIKNI MA’NAVIY YUKSALISH OMILI

**Baymatov Alisher Kaxramonovich**

Termiz Davlat Universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qitish

metodikasi 2 kurs magistri

Telefon +998976980706

boymatovalisher32@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Maqolada O'zbekistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash ijtimoiy-ma'naviy omillarga, tinchlik va barqarorlik so'zlarida atroficha ta'rif berilgan. Tinchlik va barqarorlik g'oyalarining odamlar turmush farovonligiga ijobiy ta'siri va bir-birini taqozo etishi bayon qilingan. Hozirgi kunda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda amalga oshirilayotgan islohotlar qisqacha tahlil qilingan.

**KALIT SO'ZLAR:** tinchlik, barqarorlik, ijtimoiy adolat,xalqaro tinchlik,patsifizm, qonun ustuvorligi, Iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik

#### KIRISH

Insoniyat hayotida har doim tinchlik va barqarorlik muhim masala bo'lib kelgan. Tinchlikni, barqarorlikni ta'minlash doimo osonlikcha amalga oshmaganini tarixda misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, Mamlakatda amalga oshiriladigan barcha vazifalarning taqdiri, tinchlik va barqarorlikning qay darajada ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Ana shu ma'noda ham tinchlik va barqarorlik jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi va har qanday mamlakat o'z maqsadlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni ta'minlashga ustuvorlik bilan qaraydi. Shuningdek, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning ijtimoiy-ma'naviy omillari tizimli yondoshuv asosida tahlil qilindi. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston strategiyasi” va Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihat-ligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq asarlari metodologik manba bo'lib belgilandi. O'zbekiston hukumati mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatda tinchlik va barqarorlikni taminlashga alohida e'tibor berdi va shu yo'lda “Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi”<sup>1</sup>. Hozirgi kunda ham tinchlik va barqarorlik eng muhim dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Bunda ma'naviyat, taraqqiyot, farovonlik, erkinlik, adolat, odamiylik tushunchalarining o'rni va ahamiyati bevosita tinchlik va barqarorlikning qay darajada ekanligiga bo'g'liq bo'lib qolmoqda.

Tinchlik, xalqaro tinchlik — xalqlar va davlatlar o'rtasida zo'rlik ishlatmasdan tashqi siyosat olib borishga, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga va odatda, xalqaro shartnomalarda mustahkamlab qo'yilgan majburiyatlarga rioya etishga asoslanadigan munosabatlar: davlatlar o'rtasida uyuştirilgan qurolli kurash (ya'ni urush)ning yo'qligi . Dunyo, jamiyat rivojlanib borgan sari xalqaro munosabatlarning sub'yektlari o'rtasida vujudga keladigan mojarolar, nizolar, kelishmovchiliklarni hal qilishning zamonaviy yo'llari, usullari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Bunda quyidagi holatlar hisobga olinmoqda: XXI-asr boshlarida mojarolarning sabablari va manbalari; mojarolarning ishtirokchilari; mojarolarning xarakteri va mazmuni; bu mojarolarni hal etuvchi xalqaro tashkilotlar faoliyati o'zgarayotganligi. Tinchlikni saqlash uchun mojarolarning oldini olish, ularni tugatishda diplomatik metodlarning roli ma'lum darajada kamayib, iqtisodiy va moliyaviy vositalarning kuchayib borishi kuzatilmoqda. Shuningdek, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda gumanitar operatsiyalar sezilarli rol o'ynamoqda. Bundan tashqari Tinchlik

1 Mirziyoyev SH.M. “Yangi O'zbekiston strategiyasi” T. O'zbekiston 2021.



davlatlar orasidagi noharbiy tashqi siyosatga asoslanadi, tinchlik zamirida xalqaro bitim, kelishuv va boshqa hujjatlar yotadi. Tinchlik ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, islom dini, Qur'oni karim asoslariga yo'g'rilgan tinchlik va osoyishtalik xalqimizning buyuk qadriyati hisoblanadi. Shu bois, tinchlik va barqarorlikning jamiyat rivojidagi o'rni, kishilarning hayoti uchun ahamiyati qadim zamonlardanoq anglab yetilgan. Xuddi shuningdek «Avesto», «Tavrot», «Injil», «Veda»larda insonning ma'naviy yuksalishining muhim omili sifatida tinchlik va barqarorlik ham e'tirof etilgan. Jumladan, tinchlikning qadr-qimmatiga oid qarashlar sharq xalqlarining buyuk ma'naviy merosi “Avesto”dayoq o‘z ifodasini topgan.

Avestoda insonlarning bilim va donolik, aql-farosat, xayri-saxovat va farovonlik, tinchlik hamda barqarorlik, zulm, adovat, nizolarni odilona hal etishlari asosiy burchlari ekanligi uqtirilgan. Shuningdek, Tavrotda ham har bir insonning tinchlikni o‘z orzu-intilishi, maqsad-muddaosi ro‘yobga chiqishining sharti deb yashashi talab etiladi. Shuning uchun ham unda “Abadiy tinchlik ahdi - «Va ular bilan tinchlik ahдини тузаман, abadiy ahd ular bilan bo‘ladi» deb yozib quylgan.

Chunonchi, Aflatunning falsafiy ta'limotida tinchlik farovonlik garovi ekanligi alohida qayd etiladi. Shuningdek, faylasuf tinchlik inson ruhiyati va substatsiyasi (javhari)ning asosini tashkil etishini alohida ta'kidlab o‘tadi. Abu Nasr Forobiying “Fozil odamlar shahri” nomli asarida qayd etishicha, aynan Aflatun “Agar qonun jang qilishni buyursa, demak bu urush uchun emas, tinchlik uchun qilinadi” deb yozadi. Aflatun o‘zining bu fikri bilan insonning xavfsiz yashashi uchun birligina farovonlikning o‘zi yetishmasligini asoslamoqchi bo‘ladi. Aflatunning shogirdi Arastuning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari markazida ham tinchlikparvarlik g‘oyasi ustuvor ahamiyat kasb etgan. Uning fikricha har bir bilimli inson beshta asosiy masala bo‘yicha o‘z fikrini bildira olishi kerak. Bular moliyaviy ahvol, urush va tinchlik, vatan himoyasi, mahsulotlarni olib kelish va chiqarish, qonunchilik. Tabiiyki, ushbu ahamiyatga molik masala G‘arb va Sharq allomalarining diqqat markazida bo‘lgan.

Dunyo tinchligini saqlash uchun Ikkinchiji jahon urushidan keyin Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilgan. Nobel mukofoti tinchlik keltirish yo‘lidagi sa'y-harakatlar uchun ham beriladi. Tinchliksevarlik oqimlari mavjud, ulardan eng keng tarqalgani patsifizm deb ataladi.

Xalqaro tinchlik kuni U 21 sentabr kuni YuNESKO tomonidan nishonlanadi.

Barqarorlik - tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat’iy, uzil-kesil hamda mustahkam o’rnatalgan muhim shart. Barqarorlik, tinchlik, totuvlik - bular davlatchiligidimizning yangi binosi barpo qilinadigan poydevoridir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga olib boradigan yo‘ldir. Barqarorlik, avvalo, har qanday taraqqiyot, bunyodkorlik faoliyatining zaruriy sharti va zamini hisoblanadi.

Barqarorlik insoniyat tarixida yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati uchun asos bo‘lgan. Qadimgi mashhur faylasuf Konfutsiy: «Farovonlik - maqsad, islohotlar - unga erishish yo‘li, barqarorlik esa shart-sharoitdir»<sup>1</sup> deb bejiz aytmagan. Ana shu sababdan ham jamiyat hayotida barqarorlikka intilib kelingan, barqarorlik, boshboshoqlik bo‘lmasligi uchun harakat qilingan. Barqarorlikni ta'minlashda mamlakatda ijtimoiy adolatning o'rni beqiyosdir. Ijtimoiy adolat mamlakatda qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi va o‘z ish faoliyatlarini qonun doirasida amalga oshirishni bildiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Adolat – qonun ustuvorligida” va Amir Temurning «Qayerda qonun hukmronlik qilsa, o’sha yerda erkinlik bo‘ladi» degan o‘gitlari sharqona huquqiy davlat qurishda asos bo‘lib xizmat qiladi. “Adolat va haqiqat g‘oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo‘nalishi bo‘lmog‘i shart”<sup>2</sup>, – degan edi Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. – Mamlakatda adolat tamoyillari amal qilishi, barqarorlik hukm surishida uch sub’ektning, ya’ni davlat, jamiyat va fuqarolarning o‘zaro munosabatlaridagi qonuniylik asos bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ana shu uch sub’ekt - davlat, jamiyat va inson munosabatlari bir-biriga mos kelishiga erishilsagina, ota-bobolarmiz orzu qilgan adolatli jamiyat barpo bo‘ladi. 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining

1 Mullajanova M.M. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda ijtimoiy va siyosiy institutlarning roli. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi., TDIU, 2006

2 Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuchqudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog’liq. T. 12.- T.: O‘zbekiston, 2004



ikkinchi ustuvor yo‘nalishi aynan “Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari” va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” deb nomlandi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida “Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasida eng ustuvor vazifamiz - O‘zbekistonning dunyodagi “qonun ustuvorligi indeksi” yuqori darajada bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishini ta‘minlash va aholining adolatli sudlovga ishonchini oshirishga yordam beradi.” Ma’lumki, O‘zbekiston polietnik davlat bo‘lganligi bois, millatlararo va dinlararo totuvlik, bag‘rikenglik, hamkorlikni ta‘minlash tinchlik va barqarorlikning asosiy shartidir. O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar yashamoqda va ularning 147 ta milliy-madaniy markaz ishlab turibdi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, Respublikada 16 ta diniy konfessiyalar ( 2019-yilgi ma’lumot) o‘z his faoliyatini olib bormoqda. Bu markazlarning mamlakatimiz tinchlik barqarorlikni ta‘minlashdagi roli beqiyos.

” Mamlakatimizda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlik borasida ham vaziyat tubdan yaxshilandi. Bu boradagi faoliyatimizning o‘zagini “Bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik - barqaror taraqqiyot omili”<sup>2</sup>, degan tamoyil tashkil etadi.

Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz. BMT Bosh Assambleyasini tomonidan Xalqaro do‘stlik kuni deb belgilangan 30 iyul sanasini yurtimizda “Xalqlar do‘stligi kuni” deb e‘lon qildik va 2021 yili uni keng nishonladik. Ishonchim komilki, bu bayram ezgu an‘anaga aylanib, xalqimizni jonajon Vatanimiz bayrog‘i ostida yanada jipslashtirishga xizmat qiladi.” Ma’lumki, qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab keladi. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.

2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar” islohotlar amalga oshirildi.

**Iqtisodiy va siyosiy barqarorlik uzviy bog‘liq** jarayonlardan biri. SHu boisdan ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlash iqtisodiy islohotlar barqarorligining rivojlanishini tahmin etadi, aholi turmush darajasining sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keladi. Mamlakatimizda ijtimoiy hamkorlikni ta‘minlashda farovon, barqaror hayotni barpo etishning 4 shartiga e’tibor qaratilmoqda. Bular:

- a) tinch-totuvlik va barqarorlikni ko‘z qorachig‘iday asrash;
- b) mulkka yangi munosabatda bo‘lish;
- v) fuqarolar, avvalo, faollar tafakkurining o‘zgarishi zarurligi;
- g) ijtimoiy ongimizda Yangi O‘zbekiston g‘oyasining ustunligi.

Barqarorlik ta‘minlash ishlari ijtimoiy-siyosiy barqarorlik deb nomlasak ham adashmagan bo‘lamiz. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta‘minlashda ichki va tashqi omillarga katta e’tibor qaratiladi.

### Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ichki omillari:

- 1) Xalqning kundalik moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarining to‘la qondirilishi.
- 2) Millatlararo tinch-totuvlik, teng huquqlilik, hamjihatlik, hamkorlik.
- 3) Diniy bag‘rikenglik (tolerantlik).
- 4) Fuqarolarning siyosiy faolligi;
- 5) Jamiyat hayotining barcha sohasini demokratlashtirish.
- 6) Adolatli, qonun ustuvorligini ta‘minlash.
- 7) Ijtimoiy muhofaza, ijtimoiy kafolat, ijtimoiy adolat tamoyillarini yo‘lga qo‘yish.
- 8) Davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish va h.k.

### Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning tashqi omillari:

1 “Milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlarini qo‘llab-quvvatlash rivojlanish omili” Yangi O‘zbekiston gazetasи 26.02.2021

2 Mirziyoyev SH.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” T. O‘zbekiston 2021.



- 1) Mamlakat manfaati ustuvorligini ta'minlash.
- 2) Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash.
- 3) BMT, YeXHT, Yevropa Ittifoqi, NATO, SHHT, Yevroosiyo kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni keng yo'lga qo'yish.
- 4) Chet el davlatlari bilan faol va manfaatli tashqi siyosat olib boorish va h.k

Yoshlarni bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, tarix, madaniyat, milliy an'ana va urf-odatlarni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu millatchilik va ekstremizm aqidalariga qarshi mafkuraviy immunitetga ega, mustaqillik g'oyalariga sodiq, O'zbekiston milliy manfaatlarini himoya qiladigan va ilgari suradigan ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish imkonini beradi.

#### XULOSA

Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti - tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir. “ Yangi O'zbekiston - barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi!

Bugungi xalqimiz - kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston xam - kechagi O'zbekiston emas.”<sup>1</sup>

Shu bois, demokratik islohotlar yo'li - biz uchun yakkayu yagona va eng to'g'ri yo'ldir. Bu borada biz har kuni izlanishdamiz, xorijdagi ilgor tajribalarni chuqur o'rganib, xayotimizni, ish uslubimizni takomillashtirishga xarakat qilmoqdamiz.

BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish “Suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'lik;” deb bejizga ta'kidlamagan.

Bizni doimo qiyaydigan, tinchlik bermaydigan orzu-niyatimiz, Yaratgandan so'raydigan eng katta tilak- iltijomiz shuki, betakror, go'zal, saxovathi Yangi O'zbekistonimizda, albatta, har tomonlama sog'lom, o'zining kuch-qudrati, barkamolligi bilan o'zgalarning xavasini uyg'otadigan avlodlar yashashi kerak.

Umuman olganda, jonajon vatanimizni qanchalar sevsak, shunchalar uning tinchligi, kuch-qudratini oshirish yo'lida mushtarak maqsad sari harakat qilishimiz insoniylik burchimiz va fuqaroyvi mas'uliyatimiz va daxldorlik hissidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. “ Yangi O'zbekiston strategiyasi” Toshkent. O'zbekiston nash.2021.
2. Karimov I. A.” Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihat-ligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq” T.: O'zbekiston, 2004
3. Mullajanova M.M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda ijtimoiy va siyosiy institutlarning roli. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi., TDIU, 2006.
4. Milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash rivojlanish omili” Yangi O'zbekiston gazetasi 26.02.2021

#### Internet saytlari

1. [www.ref.uz](http://www.ref.uz).
2. [www.zuyo.edu.uz](http://www.zuyo.edu.uz).

1 Mirziyoyev SH.M. “ Yangi O'zbekiston strategiyasi” T. O'zbekiston 2021

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 2-КИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзисв

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000